

**Kreditning to'liq
qiymati - ____%**

(_____)

??creditnumber?? - sonli transport krediti ajratish shartnomasi
(Ikkilamchi bozordan kredit hisobidan transport vositasi/elektromobil sotib olish bo'yicha)

??creditnumber?? shahar

??creditnumber??

Chet el kapitali ishtirokidagi **"Hamkorbank"** aksiyadorlik tijorat banki nomidan _____ yildagi №_____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Bankning ??creditnumber?? boshqaruvchisi/boshlig'i ??creditnumber??, bundan buyon matnlarda **"Bank"** deb nomlanadi, birinchi tarafdin, fuqaro ??creditnumber??, bundan buyon matnda **"Kredit oluvchi"** deb nomlanadi, ikkinchi tarafdin, fuqaro ??creditnumber?? bundan buyon matnda **"Birgalikda Kredit oluvchi/BKO"** deb nomlanadi, uchinchi tarafdin, hammalari birgalikda **"Taraflar"** deb nomlanadi, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti.

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Bank ilgari foydalanishda bo'lgan transport vositasini sotib olish uchun Kredit oluvchiga kredit berish, Kredit oluvchi esa kreditdan aniq maqsadli foydalanish, ya'ni ilgari foydalanishdagi transport vositasini sotib olish, kreditni Bankka qaytarish va pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz to'lash majburiyatini oladi.

2. Kredit miqdori, shartlari va hisob-kitob qilish tartibi.

2.1. Kredit oluvchiga ??creditnumber?? (??creditnumber??) so'm miqdorida, ??creditnumber?? (??creditnumber??) oy muddatga, yillik ??creditnumber?? % (??creditnumber??) o'zgarmas foiz to'lash sharti bilan ??creditnumber?? sanasiga qadar kredit ajratiladi.

2.2. Kreditni qaytarish shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan qaytarish (1-ilovaga asosan *(tanlab olingan usuldan biri tagiga chiziladi)*) differensial yoki annuitet usulda) jadvali asosida amalga oshirilgan holda foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada Kredit qoldig'iga nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

2.3. Kredit to'lovlarini qaytarish Kredit oluvchi/BKOning istagiga ko'ra, avtoto'lov xizmati, bank kartasi, naqd pul, pul o'tkazish yo'li bilan va qonunchilik hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa to'lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag'lar agar mablag' kredit qarzdorligini qaytarish grafigi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni (tani, fozi) qoplash uchun yetarli bo'lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o'tgan kredit foizi, muddati o'tgan kredit tani, muddatli kredit foizi so'ngra muddatli kredit tanini so'ndirishga yo'naltiriladi. Agar pul mablag'i yetarli bo'lmasa qonunchilikda belgilangan tartibda.

2.4. Agar amalga oshirilgan to'lov summasi Kredit oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, Kredit oluvchining krediti quyidagi navbatda qoplanadi:

- asosiy kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy kredit bo'yicha qarzdorlik;
- neustoyka(jarima, penya);
- kreditning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

2.5. Mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirishiga qadar, Kredit oluvchi o'zining omonat xisobvarag'iga transport vositasi qiymatining kamida ??creditnumber?? % miqdoridagi o'z ulushini shakllantiradi. Ushbu pul mablag'lari keyinchalik kredit mablag'lari bilan birga sotuvchining bank xisob-raqami yoki bank kartasiga o'tkaziladi;

2.6. Haftaning juma kuni hisoblab yoziladigan foizni hisoblashda uch kun — juma, shanba va yakshanba kunlari uchun foizlar hisobga olinadi. Agar joriy oy juma yoki shanba kunida

tugaydigan bo'lsa, unda foizlarni hisoblab yozish tegishli bir kun yoki ikki kun uchun amalga oshiriladi. Hafta oxirida qoladigan kun (kunlar) uchun foizlar keyingi oyning birinchi ish kunida hisoblab yoziladi. Bayram kunlariga nisbatan ham xuddi shunday jarayon qo'llaniladi.

3. Taraflarning majburiyatlari.

3.1. Kredit oluvchi va birgalikda kredit oluvchining majburiyatlari:

3.1.1. Kredit va unga hisoblangan foizlarni ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida (1-ilova) belgilangan muddatlarda to'liq to'lash hamda muddatlilik, to'lovlilik, maqsadlilik va ta'minlanganlik tamoyillariga rioya etish;

3.1.2. Kredit oluvchi tomonidan bankga ma'lum qilgan yoki bank tomonidan keyinchalik aniqlangan, yashash, ro'yxatdan o'tgan manzillariga har qanday xabarlarni pochta aloqa tarmoqlari orqali yoki bank vakillari tomonidan shaxsan kredit oluvchiga, oila a'zolari yoki shu manzilda yashovchi shaxslarga qog'oz shaklida yuborilishi va taqdim qilinishiga hamda Kredit oluvchi tomonidan bankka ma'lum qilgan yoki bank tomonidan keyinchalik aniqlangan kredit oluvchining telefon raqamlariga SMS xabarlarini kredit oluvchining shaxsga doir ma'lumotlarini ochiq holda yuborishga o'z roziligini bildiradi;

3.1.3. Kredit oluvchi o'zining/Birgalikda kredit oluvchining ish joyi, yashash joyi, familiyasi, ismi, taqdim qilgan yoki boshqa telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqdagi manzillari o'zgarganda yoxud mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar to'g'risida yozma shaklda va o'zi uchun maqbul bo'lgan aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish majburiyatini oladi. Kredit oluvchi/Birgalikda kredit oluvchi tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarilmasligi oqibatida o'ziga yoki uchinchi shaxslarga yetkazilishi mumkin bo'lgan yoki yetkazilgan barcha moddiy va ma'naviy zararlar yoxud barcha salbiy holatlar yuzasidan shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi;

3.1.4. Transport vositasi Kredit oluvchi nomiga qayta rasmiylashtirilib, mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar olingan kundan 3 (uch) kalendar kun ichida transport vositasini barcha xavflardan (yo'qolish, shikastlanish, yo'l-transport xodisalari va boshqalar) sug'urta qildirish hamda notarial idora orqali garovga qo'yish.

3.1.5. Garov mulkiga shikast yetkazilgan, yaroqsiz holga kelgan, yo'qolgan taqdirda zudlik bilan Bankka xabar berish va garov mulkini 10 (o'n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulk ta'minotiga almashtirish;

3.1.6. Kreditni qaytarish jadvaliga nisbatan ortiqcha to'langan mablag' kelgusi davrlarda so'ndirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, u holda to'lovni amalga oshirishdan 3 (uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;

3.1.7. Shaxsiy (BKOning ham)bank kartasini Bankning avtoto'lov xizmatiga ulash;

3.1.8. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga yoki vakolatli organlarning ichki qoidalariga muvofiq kredit bitimlarini tuzish, kredit olish, kafil yoki birgalikda kredit oluvchi sifatida ishtirok etish taqiqlangan shaxslar reestrda (ro'yxatida) turmaslik;

3.1.9. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.

3.2. Bankning majburiyatlari.

3.2.1. Kredit oluvchining huquq va majburiyatlari to'g'risida, jumladan kredit ajratishga oid barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot berish;

3.2.2. Kredit oluvchi nomiga ssuda hisob raqamlarini ochish va mazkur shartnomaning 3.1.4.-bandidagi majburiyatlar to'liq bajarilganidan keyin garov ta'minoti bo'yicha talab etilgan hujjatlar bankka taqdim etganidan so'ng 3 (uch) bank ish kuni ichida Kredit ajratish;

3.2.3. Kredit oluvchini Kreditni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida oldindan xabardor qilish;

3.2.4. Kredit oluvchining so'rovi Bankda ro'yxatga olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida Kredit oluvchi tomonidan berilgan ariza va Kredit oluvchiga Kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda bir ish kuni ichida shartnoma bo'yicha Kredit oluvchining majburiyatlari to'liq bajarilgani tasdiqlovchi hujjat taqdim etish;

3.2.5. Kredit oluvchi majburiyatlarni bajarilmaslik sabablari, holati, muddati, summalari, tarkibi haqida so‘rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka qo‘llanishi natijasida xarajatlar ortishi haqida ogohlantirish;

3.2.6. Muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Kredit oluvchi bilan har qanday aloqa usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, Kredit oluvchiga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

3.2.7. Mazkur shartnomaning 3.1.6-bandiga muvofiq Kredit oluvchi/BKOning arizasi mavjud bo‘lmagan holda, Kreditning joriy to‘lovi uchun qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag‘ning ortiqcha qismini Kreditning asosiy qismini so‘ndirishga yo‘naltirish hamda kelgusi ish kunidan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

3.2.8. Kredit oluvchining so‘rovi olinganidan so‘ng bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda oyda bir marta bepul taqdim etish: limit, Kredit bo‘yicha to‘langan pul mablag‘lari summasi, asosiy summa bo‘yicha Kredit qoldig‘i, navbatdagi to‘lovlar miqdori, tarkibi va muddatlari (to‘lovlar jadvali), Kreditni muddatidan oldin qisman yoki to‘liq so‘ndirish istagi bildirilgan taqdirda, to‘lash lozim bo‘lgan summalar miqdori, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi, kelib tushayotgan pul mablag‘lari Kreditni asosiy qismini so‘ndirishga yo‘naltirilishi haqida axborotlar;

3.2.9. Kredit oluvchi shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatini to‘liq bajargan sanadan boshlab uch ish kuni ichida garov mulkini taqiqdand chiqarish bo‘yicha notariusga xat berish hamda garov mulkiga nisbatan Bank huquqlari haqidagi yozuvni garov reestrindan o‘chirish;

3.2.10. Shartnomada nazarda tutilgan Kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Kredit oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

3.2.11. Kredit bo‘yicha foiz stavkasi o‘zgarganda yoki mazkur shartnomaning 3.2.7-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va Kredit oluvchiga taqdim etish. Bunda, dastlabki qaytarish jadvali kuchini yo‘qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi;

3.2.12. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4. Taraflarning huquqlari.

4.1. Kredit oluvchi va birgalikda Kredit oluvchining huquqlari:

4.1.1. O‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan Kredit berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalaridagi o‘zgarishlar haqida to‘liq axborot olish;

4.1.2. Kredit shartnoma tuzilgandan keyin va bank tomonidan kredit mablag‘lari ajratilgunga qadar bo‘lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish, Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar Kredit oluvchi/BKO zimmasida qoladi;

4.1.3. Jarima sanksiyalarini undirmagan holda istalgan vaqtda kreditni muddatidan oldin so‘ndirish. Bunda, kredit uchun foizlar kredit to‘liq qaytarilgan kungacha qadar hisoblanadi;

4.1.4. Bankdan majburiyatlarning o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarining o‘rnini qoplashni talab qilish;

4.1.5. Kredit to‘lovlarini masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda to‘lash;

4.1.6. Kreditni qaytarish turini (differensial yoki annuitet), shuningdek sug‘urta yoki baholash xizmatlarini mustaqil tanlash;

4.1.7. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa huquqlardan foydalanish.

4.2. Bankning huquqlari.

4.2.1. Kredit oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida Kreditdan foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida taraflarni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tarafлама bekor qilish;

4.2.2. Kredit berish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish, zarur hujjatlarni Kredit oluvchi/BKOdan so'rab olish;

4.2.3. Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiylikiga shubha tug'ilganida, monitoring o'tkazish maqsadida, shuningdek muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan taqdirda, Kredit oluvchi/BKOlarga qo'ng'iroq qilish yoki yozma murojaat berish;

4.2.4. Garov mulkining holati va saqlanishi bo'yicha tekshiruvlarni amalga oshirish;

4.2.5. O'zaro muzokaralarni (bayonnoma shaklida, telefon qo'ng'iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

4.2.6. Kredit oluvchining shartnomaviy majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, har qanday qonuniy choralarni ko'rish, jumladan Kredit oluvchi/BKOning har qanday mol-mulkidan majburiy ravishda undirish;

4.2.7. Kredit oluvchining joriy yoki muddati o'tgan majburiyatlari (Kreditlari)ni so'ndirish maqsadida, mablag'larni quyidagi usullar yordamida hisobdan chiqarish:

- Kredit oluvchi/BKOning har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to'lov talablarini qo'yish;

- Kredit oluvchi/BKOning Bankdagi bank hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan.

4.2.8. Kredit oluvchi (BKO) tomonidan yolg'on tasdiqlar va kafolatlar berilganligi, ko'rsatilgan reestrda (ro'yxatda) bo'lganligi haqidagi ma'lumot yashirilganligi yoki ushbu Shartnoma tuzilgan paytda (ya'ni, Bank tomonidan dastlabki tekshiruvlar o'tkazilgandan so'ng, lekin Shartnoma imzolanganiga qadar) shunday reestrda (ro'yxatga) kiritilganligi asosi bilan aniqlangan taqdirda Bank tomonidan shartnoma muddatidan oldin bekor qilish va jarima sanksiyalarini qo'llash;

4.2.9. Kredit ajratish kunida Kredit oluvchining ASOKIsini olgan holda qarz yukini qayta hisob-kitob qilish, hisob-kitob natijasiga asosan Kredit oluvchi to'lov qobiliyati yetarli emas deb topilsa kredit ajratishni rad etish yoki kredit miqdorini kamaytirish;

4.2.10. Garov shartnomasiga asosan garov obyektga taqiq qo'yish hamda qo'yilgan taqiqlarni bekor qilish uchun kredit oluvchidan bank tarif(Bosh tarif)larigagi miqdorda xizmat haqi undirish;

4.2.11. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

5. Taraflarning javobgarligi.

5.1. Kredit oluvchi va birgalikda kredit oluvchining javobgarligi:

5.1.1. Asosiy kreditni qaytarish muddati kechiktirilganda, Bankka butun kechiktirilgan davrda kechiktirilgan to'lovlar uchun shartnomaning 2.1.-bandida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to'laydi.

5.1.2. Asosiy kredit o'z muddatida to'lamagan taqdirda, to'lov kechikkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning **??creditnumber??** foizi miqdorida hamda kredit foizini o'z muddatida to'lamagan taqdirda, to'lov kechikkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning **??creditnumber??** foizi miqdorida Bankka penya to'laydi.

5.1.3. Ushbu shartnomaning 3.1.6.-bandi talablarini bajarmaganda Bankka har bir muddati o'tkazilgan kunga garov summasining 0,1 % foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2. Bankning javobgarligi.

5.2.1. Kredit berish majburiyatini bajarmaganida yoki o'z vaqtida bajarmaganida Kredit oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2.2. Ushbu shartnomaning 3.2.9.-bandidagi majburiyatlarini bajarmasa, har bir kun uchun garov qiymatining 0.1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2.3. Shartnoma bo'yicha hisoblangan neustoykani to'lash/ixtiyoriy to'lash, taraflarni shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo'llash huquqidan mahrum qilmaydi.

5.2.4. Kredit bo'yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarining eng ko'p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

6. Ta'minot.

6.1. Kreditning asosiy ta'minoti bank tomonidan berilayotgan Kredit evaziga sotib olinayotgan transport vositasi hisoblanadi. Transport vositasi garovga qo'yilishidan avval shartnomaning 3.1.5.-bandiga asosan Kredit oluvchi hisobidan sug'urtalanib, sug'urta shartnomasi va polisi Bankka Kredit oluvchi tomonidan taqdim etiladi.

6.2. Sotib olinadigan transport vositasi Kredit oluvchi hisobidan notarial tasdiqlangan garov shartnomasi orqali garovga qo'yiladi. Bunda, garov mulki bo'yicha Bank tomonidan garov reestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yiladi.

6.3. Bank Kredit bo'yicha tuziladigan garov shartnomasida bankning garov ta'minotiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda Kredit oluvchining Kreditning qoplanmagan qismidan ortiq summada garov ta'minoti summasini kamaytirish huquqini, shuningdek garov ta'minotini kamaytirish tartibi va usullarini aks ettirishi shart.

6.4. Garov qiymatining diskont grafigini qo'llashi ya'ni garov qiymatini kamaytirib borish usulidan foydalanishi mumkin.

7. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.

7.1. Shartnoma taraflar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amalda bo'ladi.

7.2. Shartnoma shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Shartnomaga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflar imzolaganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

7.3. Quyidagi asoslar yuzaga kelganida, Bank mazkur shartnomani muddatidan avval bekor qilishi/ undiruvni garovdagi yoki boshqa mol-mulklarga qaratishi mumkin:

- a) Shartnoma tuzishda yoki Kredit operatsiyalarini bajarishda Kredit oluvchi tomonidan Bankka noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;
- b) qaytarish jadvalini kamida uch va undan ortiq marotaba buzgan taqdirda;
- c) Kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish jadvalida belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga sababsiz kechiktirilganida;
- d) Mazkur shartnomaning 3.1.5. bandidagi majburiyat bajarilmaganida;
- e) Kredit oluvchi/BKO garovga olingan transport vositasini monitoring qilinishiga to'sqinlik qilganida, uni yashirganida, Bankka taqdim qilmaganida;
- f) Kredit oluvchi garovga olingan transport vositasini Bankning roziligisiz uchinchi shaxslarga boshqarishga, ijaraga, tekin foydalanishga, boshqa har qanday asoslarga ko'ra bersa, shuningdek, noqonuniy ravishda tasarruf etsa;
- g) Bank tomonidan yuqoridagi asoslarga ko'ra, kreditni muddatidan oldin to'liq qaytarish talabi asosida undiruvni Kredit oluvchi xisobidan va kredit ta'minotiga qaratish yuzasidan tegishli sudga ariza/da'vo ariza bilan murojaat qilingan hollarda, sud muhokamalariga qadar yoki sud muhokamalari jarayonida Kredit oluvchi tomonidan muddati o'tgan kredit Kreditni to'lab qo'yishligi da'vogar (bank) tomonidan da'voni qaytarib olishga yoki da'vodan voz kechishga asos bo'lmaydi;
- h) Kredit oluvchi(BKO)ni Bank Kredit ajratishdan avval mavjud bank kartalarini "Avto-to'lov" xizmatiga ulashdan bosh tortganda;

- i) Kredit oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.8-bandi ijrosi ta'minlamagan taqdirda;
- j) Qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko'ra.

8. Maxfiylik

8.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

8.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

8.3. Mazkur talab butun shartnoma muddatida hamda shartnoma muddati tugaganidan so'ng 3 yil amal qiladi.

9. Alohida shartlar, kafolatlar va bildirishlar

9.1. Mazkur shartnomani imzolash bilan Kredit oluvchi Bankka uning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishga quyidagi hollarda rozilik beradi:

Kredit oluvchi manfaatdor bo'lgan shartnomalarni tuzishda va ijrosini ta'minlashda;

Kredit oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyat-larining bajarilishini ta'minlashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzdorlikni undirishda;

ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida;

shartnomaning ijrosini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlarni Kredit oluvchi/BKOga yetkazishda.

9.2. Kredit oluvchi/BKO to'lov jadvali asosida Kredit bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Kredit oluvchi bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

9.3. Bank yuborgan SMS xabarnomalar, ogohlantirish xatlari, qilingan qo'ng'iroqlar va boshqalar sud va boshqa organlarda dalil bo'lib xizmat qiladi.

9.4. Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 3 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

10. Fors-major holatlari.

10.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

10.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

10.3. Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish

11.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi. Ana shunday taklif bildirilganida, ikkinchi taraf, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari bunday takliflarni rad qilishi shart.

11.2. Agar shartnoma ishtirokchilaridan birida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tarafga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

11.3. Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

11.4. Pora evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

12. Nizolarni hal etish tartibi va boshqa shartlar

12.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf yuborgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur hujjatda ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim. Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirilishi, elektron pochta manziliga yoki pochta aloqa xizmati orqali yuborilishi mumkin.

12.2. Barcha nizolar bank tarmoqlari joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

12.3. Mazkur shartnoma va uning ilovasi bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Kredit oluvchida saqlanadi.

13. Taraflarning tasdig'i, manzillari, to'lov rekvizitlari va imzolari.

Kredit oluvchi/BKO kredit bo'yicha barcha ma'lumotlar shartnoma tuzilishidan avval unga bepul taqdim etilgani va ushbu shartnoma imzolanmasidan oldin tanishib chiqish uchun o'zi bilan olib ketishi mumkinligi haqida ogohlantirilganini tasdiqlaydi.

Kredit oluvchi

Manzil: ??creditnumber??

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat:

??creditnumber?? ??creditnumber??,

??creditnumber?? yilda

??creditnumber?? IIBda berilgan fuqaro:

??creditnumber??

Tel: _____

(imzo)

Birgalikda kredit oluvchi

Manzil: ??creditnumber??

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat:

??creditnumber?? ??creditnumber??

??creditnumber?? yilda

??creditnumber?? IIBda berilgan fuqaro:

??creditnumber??

Tel: _____

(imzo)

Bank

Manzil: ??creditnumber??

??creditnumber??

X.r: ??creditnumber??,

MFO: ??creditnumber??,

INN: ??creditnumber??

Boshqaruvchi ??creditnumber??

(imzo)

www.hamkorbank.uz

Tel: 0-800-1-200-200

Hurmatli Kredit oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi va bu esa o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga yoki vakolatli organlarning (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, lekin u bilan cheklanmagan holda) ichki



qoidalariga muvofiq kredit bitimlarini tuzish, kredit olish, kafil yoki birgalikda kredit oluvchi sifatida ishtirok etish taqiqlangan shaxslar reestrda (ro‘yxatida) turmayman.

Shartnoma mazmuni va mohiyati bilan to‘liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

_____ “ ” _____ 20 __ yil
(imzo) (FISH)

_____ “ ” _____ 20 __ yil
(imzo) (FISH)

1-ilova

??creditnumber?? kungi imzolangan №??creditnumber?? - sonli Kredit shartnomasi bo'yicha Kredit
va foizlarni **qaytarish jadvali**

№	To'lov kuni	Muddati o'tadigan kun	Asosiy Kredit to'lov summasi	Hisoblangan foizning kaytarilish summasi	Jami to'lov	Sundirilguncha Kredit qoldig'i summasi	Sundirilgandan keyingi Kredit qoldig'i summasi
1							
2							
Itogo:							

Ushbu qaytarish jadvalida ko'rsatib o'tilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish majburiyati olaman.

ID: ??creditnumber??

Parol: ??creditnumber??

MBXO/UBXO boshlig'i

Kredit oluvchi

(imzo)

??creditnumber??

(imzo)

??creditnumber??

Kredit mutaxassisi

??creditnumber?? yil

(imzo)

??creditnumber??